

PARAFRAZALAR LINGVISTIKANING TEKSHIRISH OBYEKTI SIFATIDA

Umirov Ixtiyor Ergshevich

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Parafrazalar og'zaki va yozma nutqimizda badiiy obrazlilik vositalaridan biri sifatida faol qo'llaniladi, ular tilning boyligini, semantik imkoniyatlari kengligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Jahon tilshunosligida parafrazalar yuzasidan mulohazalar bilan bir qatorda ixcham ta'rif berilgan, parafrazalarning badiiy tasvir vositalari doirasida o'ziga xos xususiyatlari borligi va ularni alohida o'rganish zarurligi qayd etilgan bir nechta maqolalar mavjud. Binobarin, bu obrazli iborani ilmiy-nazariy nuqtai nazardan alohida tadqiq etish, mohiyatini ochib berish bugungi umumiy tilshunoslik, ayniqsa, stilistika fanining hal etilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir. Maqolada tilning tasviriy vositalaridan biri parafrazalarning nomlanishi tadqiq etilgan bo'lib, ularning jahon tilshunosligidagi mavqei aniqlangan. Shuningdek, parafrazalarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'rganilganlik darajasi ham mumkin qadar aniqlandi. Parafrazalar asosan predmetlarga nisbatan qo'llanilib, ularning belgi-xususiyatlarini belgilashda eng muhim omil ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: parafraza, kontekst, tilshunoslik, perifraza, semantika, trop, frazeologiya, turg'un birikmalar.

PARAPHRASES AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Umirov Ikhtiyor Ergshevich,

Associate Professor of the General Linguistics Department of the State University of World Languages of Uzbekistan

Abstract: Paraphrases are actively used in our oral and written speech as one of the tools of artistic imagery, they are one of the factors that show the richness of the language and the breadth of its semantic possibilities. In world linguistics, there are several articles that provide a concise definition along with comments on paraphrases, and note that paraphrases have their own characteristics within the framework of artistic image tools and the need to study them separately. Consequently, researching this figurative expression from a scientific-theoretical point of view, revealing its essence is one of the issues that must be solved in today's general linguistics, especially in the science of stylistics. The article deals with the naming of paraphrases, one of the descriptive tools of the language, and their position in world linguistics. Also, the degree of learning of paraphrases in English and Uzbek languages was determined as much as possible. Paraphrases are mainly used in relation to subjects, and it was found to be the most important factor in determining their characteristics.

Key words: paraphrase, context, linguistics, periphrasis, semantics, trope, phraseology, fixed combinations.

ПАРАФРАЗЫ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Умиров Ихтиёр Эргшевич

Доцент кафедры общего языкознания Государственного университета мировых языков Узбекистана

Аннотация: Парафразы активно используются в нашей устной и письменной речи как одно из средств художественной образности, они являются одним из факторов, показывающих богатство языка и широту его смысловых возможностей. В мировой лингвистике есть несколько статей, дающих краткое определение наряду с комментариями к парафразам, и отмечают, что парафразы имеют свои особенности в рамках средств художественного образа и необходимость их отдельного изучения. Следовательно, исследование этого образного выражения с научно-теоретической точки зрения, раскрытие его сущности является одной из задач, которые необходимо решить в современном общем языкознании, особенно в науке стилистике. В статье рассматривается именование парафраз, одного из описательных средств языка, и их место в мировой лингвистике. Также максимально определялась степень усвоения пересказов на английском и узбекском языках. Парафразы в основном используются по отношению к субъектам,

и это оказалось наиболее важным фактором в определении их характеристик.

Ключевые слова: парафраз, контекст, лингвистика, перифраз, семантика, троп, фразеология, устойчивые сочетания.

KIRISH. Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologik birliklardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal, tasviriy ifodalar va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Frazeologizmlar - bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo'lib, tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko'p aspektli nutq hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hanuzgacha munozaraligicha qolmoqda [1,30] Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa [1], B. A. Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan o'sha birliklar umumiy ma'nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi [4,102].

USUL-METOD

Frazeologizmlar tilshunoslikning mustaqil tarmog' i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye. D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

Frazeologiya obyekti frazeologik birliklar (barqaror birikmalar) dan tashkil topadi. Frazeologik birliklar fikrni obrazli, o'tkir ma'noli va keng qamrovli tarzda ifodalaydigan til birligi hisoblanadi [7,130]. Ana shunday frazeologik birikmalardan biri tasviriy ifodalardir.

Tasviriy ifoda tushunchasiga ta'rif berishdan avval parafraza hamda tasviriy ifoda atamalarini ishlatilishi haqida so'z yuritish lozim.

A. Hojiyevning 1985-yilda nashr etilgan lug'atida perifraza «Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalanadigan stilistik priyom» deb ta'riflangan [2, 267].

Shu muallifning 2002-yilda nashr etilgan lug'atida «Perifraza (yun. Paraphrasis- tasviriy ifoda, tasvir), Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalashdir. Masalan, dala malikasi (makkajo'xori), zangori olov (gaz) kabi» [3, 87] izohi berilgan.

O'zbek tilshunosligida parafrazani o'quv qo'llanmalariga olib kirgan tilshunos R. Qung'urovdur. 1983- yilda nashr etilgan «O'zbek tili stilistikasi» qo'llanmasining «Troplar» qismini R.Qo'ng'urov yozgan. Unda quyidagilar bayon qilingan: «Perifraz kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish parafraz deyiladi. Bu termin parafraza, parafraz, parafraza deb ham yuritiladi» [8, 56].

MUHOKAMA

Parafraza, parafraz (yun. periphraasis — tasviriy ibora; kinoya, istiora) — borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan-to'g'ri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash; majoziy ifodalardan biri (mas, «sher» o'rnida «hayvonlar shohi»; «paxta» o'rnida «oq oltin», Alisher Navoiy o'rnida «O'zbek adabiy tilining asoschisi» iboralarining qo'llanishi). Parafrazalar orqali tasvirlanayotgan tushunchaning ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Parafrazaning asosiy vazifasi matnning ifodaviyligini, bayonning ta'sirchanligini oshirishdir.

Paraphrase is a term in the field of literary theory and means: the free processing of a literary work, developing and modifying the content of the original; the preserved similarity of construction and style

allows to recognize the paraphrased song. [10] (Parafraza - bu adabiyot nazariyasi sohasidagi atama bo'lib, quyidagilarni anglatadi: adabiy asarni erkin qayta ishlash, asl nusxaning mazmunini ishlab chiqish va o'zgartirish; qurilish va uslubning saqlanib qolgan o'xshashligi parafrazlangan qo'shiqni tanib olishga imkon beradi)

Yuqoridagi manbalardan kelib chiqadiki, o'zbek tilshunosligida tasviriy ifoda, parafraza hamda parafraza atamaları bir xil ma'no anglatib, gapda bir xil vazifa bajaradi. Bu hodisaning ingliz tilida o'rganilishi quyidagicha kechadi.

Periphrasis, also called discussion include: the replacement of a word by a group of words which are descriptive or metaphorical equivalent of its meaning. Speaking in a more understandable language, we could define periphery as saying something indirectly, but in a longer way [10]. (Parafraza quyidagilarni o'z ichiga oladi: so'zni uning ma'nosini tavsiflovchi yoki metafora ekvivalenti bo'lgan so'zlar birikmasiga almashtirish. Tushunarli tilda gapirsak, parafrazani biror bir narsa-hodisani bilvosita, ammo uzunroq atama bilan ifodalanishi deb tushunish mumkin).

O'zbek va ingliz tilshunosligida parafrazalarning asosiy xususiyatlari to'g'risida mukammal faktik qarashlar mavjud emas, biroq bir qancha tilshunos olimlar tomonidan parafrazalarning ma'lum bir xususiyatlari, qirralari o'rganilgan tadqiqotlar uchraydi.

Parafraza haqidagi ma'lumotni taqdim etgan o'quv qo'llanmalaridan yana biri M.Mirtojiyevning ishidir. Mazkur qo'llanmada "Parafrazalar" sarlavhasi ostida salkam ikki betlik ma'lumot berilgan. Unda "Parafrazalar ma'lum bo'lagi yoki bo'laklari ko'chma ma'noda bo'lib, ular ma'nosi sintezidan tarkib topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birlikdir" [5, 20] degan ta'rif o'rin olgan.

Parafrazaning darslikka olib kirilishi ham M.Mirtojiyev tomonidan amalga oshirildi [6, 95] Muallif yuqoridagi parafrazaga oid ma'lumotlarni to'lig'icha va o'zgarishsiz darslikda ham taqdim etdi.

O'zbek tilshunosligida parafrazaga bag'ishlangan ilk va jiddiy maqola H.Shamsiddinov tomonidan e'lon qilindi [9, 29-35]. Maqolada tasviriy ifodaga oid quyidagi o'zak masalalar o'rtaga tashlangan va muayyan xulosalarga kelingan:

1. Parafrazalar ta'rifi, izohi masalasi.
2. Parafrazaning frazeologizm bilan umumiy va xususiy jihatlari.
3. Parafrazaning til va nutqqa munosabati.
4. Mazkur hodisani yagona atama bilan atash masalasi.
5. Parafrazaning subyektiv omil mahsuli ekanligi, lekin obyektivlikni inkor etmasligi
6. Uning ikkilamchi yoki qayta nomlashga mansubligi.
7. Parafrazaning yuzaga kelishida umumiilik va xususiylk kabi falsafiy kategoriyalarning amal qilishi.
8. Parafrazalarning paydo bo'lishida ekstralingvistik va psixolingvistik omillar ta'siri.
9. Parafrazalarni matnda taqdim etish va ularning imlosi masalasi.

H. Shamsiddinov parafrazaning frazeologizm bilan umumiy va xususiy jihatlari haqida fikr yuritilgan o'rinlarda parafrazaning predmet-hodisani qayta nomlashi, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda parafraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [9, 29-35].

Hakim Shamsiddinov "Perifrazaxususida ayrim mulohazalar" nomli maqolasida rustadqiqotchilarining parafrazaga oid ilmiy qarashlarini quyidagicha keltirib o'tgan [9]. Jumladan: mashhur uslubshunos – tilshunos Sh.Balli ushbu hodisani "Fikrning keng shaklda takrorlanishi odatdagi terminologiyada parafraza deyiladi" [1], – tarzida ta'riflaydi.

V. P. Utkina tomonidan esa ideomatik oborot, frazeologik chatishma, barqaror birikmalar bir vaqtning o'zida perifrastik oborot ham bo'la olishi mumkinligi to'g'risidagi qarashlarini keltiradi. G. G. Molojay tilidan esa, parafraza ostida semantik jihatdan bo'linmaydigan so'z birikmalari (kam hollarda gaplar) tushuniladi. Ular alohida predmet, belgi yoki harakatlarni tasviriy atash va ayni paytda ularning xususiyatlarini ko'rsatish uchun nutq jarayonida paydo bo'ladi deb tushuntiradi. Yana Molojay tilidan "Frazeologizmlar – tilning tayyor birliklaridir, parafrazalar esa ma'lum sharoitda, ma'lum badiiy tasvirda, konkret aloqada vujudga keladigan tasviriy ifodalardir" – deya berilgan ta'rifini keltiradi [1, 46].

XULOSA

Xullas, tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan,

qaytariqlardan, qochish imkonini beradi, notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifodalar predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balli Sh. Fransuzkaya stilistika. M: Vishaya shkola, 1995
2. Hojiyev A. Lingvistik terminar izohli lug'ati. -T, 1985.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002
4. Larin B.A. Ocherki po frazeologiyi. L:1970.
5. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent.
6. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2004
7. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. T:O'qituvchi, 1991
8. Kungurov R. O'zbek tili stilistikasi – Toshkent, 1983
9. Shamsiddinov H. Parafraza xususida ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti 1993
10. <http://frazeologiya-haqida.uz/7630/uz>.